

SO'JAK (PAULITA OVCZINNIKOVII) KOROVINNING MORFOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Aslanova Xolida Gafurovna

xolida.aslanova@mail.ru

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Kirish. Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan ko‘plab me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo‘nalishlar rivojlanish yo‘liga tushib oldi.

Paulita ovczinnikovii (Korovin) So‘jak turkumi turlarining respublikamiz sharoitidagi o‘sishi va rivojlanishini asoslash, ko‘paytirish yo‘llarini ishlab chiqish, keng maydonlarni tashkil etish uchun tavsiyalar berish, muhofazaga muhtoj turlarini saqlab qolish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega. [1].

Shunday o‘simliklar qatoriga kiruvchi Paulita ovczinnikovii (Korovin) So‘jakning kelgusida mamlakatimiz xalq xo‘jaligida, jumladan, aholi sog‘lig‘ini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi aniq.

O‘rganishimiz ob’ekti bo‘lgan So‘jakning turli damlamalari tinchlantiruvchi va ziravorlik hususiyati, kosmetologiya sohasida keng qo‘llanilishi, ovqat hazm qilish sistemasiga tasir etuvchi xususiyatga ega. Paulita ovczinnikovii (Korovin) So‘jak o‘simligining biologik faolligini hisobga olgan holda, o‘simlikni morfologiyasini va bioekologiyasini o‘rganish imkoniyatini yaratadi [2].

So‘jak Janubi-g‘arbiy Pomir-Oloyning endemik o‘simligi hisoblanib balandligi 50-100 sm bo‘lgan ko‘p yillik monokarp o‘simlik. Ildizi tugunaksimon, barmoqsimon tarmoqlangan. Poyalari yakka-yakka holatda, ichi g‘ovak o‘rtasidan boshlab yuqoriroqda shoxlanadi. Ildizoldi barglari tez quriydi; yaproqlari keng uchburchaksimon, ikki, uch karra patsimon qirqilgan; asos qismidagi bo‘laklarining bandchalari bor; uchki bo‘laklari keng, rombsimon, yirik tishchali. Gultojibargi oq, kosachasining tishchalari yo‘q. Mevasi 2,5mm uzunlikkacha, tuxumsimon, bir-biriga teng bo‘lgan qovurg‘alari tufayli sal g‘adir budur. May oyida gullab, iyun-iyul mevalaydi. Tarqalishi. Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasi, g‘arbda Machaydaryogacha, Bobotog‘, Tojikistonda ham uchraydi. O‘sish sharoiti. Tosh-shag‘alli, soz tuproqli yonbag‘irligida o‘sadi (d.c.b.900-2000 m) balandlikkacha

bo'lgan joylarda uchraydi. Ularning aniq soni hali aniqlanmagan. O'simlik urug'i orqali ko'padi [3].

O'simliklardan noo'rin foydalanish tufayli ularning tabiiy zahiralarining qisqarib ketishi, ayrimlarining esa tur sifatida yo'qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli foydali o'simliklarning istiqbolli turlarini ekib o'stirish zaruratga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. H.X.Xolmatov. Z.H.Habibov. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari.Toshkent. Mehnat, 1990. 98-99 betlar.
2. Хожиматов К.Х., Хожиматов О.К. Собиров У.А. Сборник правил пользования объектами лекарственных, пищевых и технических растений. Ташкент: «Янгиасравлоди», 2009. – 171 б.
3. Набиев Н. Шальник В., Иброхимов А. Шифобахш неъматлар. Тошкент. Мехнат, 1989. 86-88 бетлар.
4. Hayitov A. E., Aslanova X. G. USE OF STUDENTS'LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 166-169 betlar.
5. Abdullaeva G. K., Tojiboyev S. J. ANALYSIS OF BIOMORPHS OF CYANOPKARYOTES AND ALGAE. – 2023.